

ISSN 2181-9238

# **GOLDEN SCRIPTS**

# **OLTIN BITIGLAR**

**2021 Vol. 2**

**[www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz)  
[www.goldenscripts.navoiy-uni.uz](http://www.goldenscripts.navoiy-uni.uz)**

ISSN 2181-9238

# **GOLDEN SCRIPTS**

# **OLTIN BITIGLAR**

2021 Vol. 2

[www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz)  
[www.goldenscripts.navoiy-uni.uz](http://www.goldenscripts.navoiy-uni.uz)

**BOSH MUHARRIR**

Shuhrat Sirojiddinov

**BOSH MUHARRIR**

**O’RINBOSARI**

Karomat Mullaxo’jayeva (o’zbek)

Qosimjon Ma'murov (ingliz)

**MAS’UL KOTIB**

Ozoda Tojiboyeva

**TAHRIR HAY’ATI**

Zaynobiddin Abdirashidov

Karl Rayxl (Germaniya)

Seyhan Tanju (Turkiya)

Kamol Abdulla (Ozarbayjon)

Vahit Turk (Turkiya)

Isa Xabibeyli (Ozarbayjon)

Benedek Peri (Vengriya)

Teymur Kerimli (Ozarbayjon)

Eunkyung Oh (Koreya)

Mark Toutant (AQSh)

Boqijon To’xliyev

Qosimjon Sodiqov

Nurbboy Jabborov

G’aybulla Boboyorov

Vali Savash (Turkiya)

Kimura Satoru (Yaponiya)

Hamidulla Dadaboyev

Aftondil Erkinov

Rashid Zohidov

Baxtiyor Abdushukurov

Almaz Ulvi (Ozarbayjon)

Dilnavoz Yusupova

Qo’ldosh Pardayev

Elchin Ibrohimov (Ozarbayjon)

Nodirbek Jo’raqo’ziyev

**MUNDARIJA**

**ADABIYOTSHUNOSLIK**

**Ilyos Ismoilov**

Tafsirlarda Iskandar mavzusiga oid talqinlar 4

**Jahongir Turdiyev**

Turkiy me’rojnomalardagi motivlar xususida 20

**MATNSHUNOSLIK**

**Abdimurod Arslonov**

“Temurnoma”larning matniy xususiyatlari 34

**G’iyosiddin Shodmonov**

O’zbek matnshunosligining ilk bosqichi va Navoiy “Xamsa”si nashrlarining takomili 50

**Aftondil Erkinov**

**Oysara Madaliyeva**

“Terma devon” yoki Navoiy “Navodir un-nihoya”sining so’nggi redaksiyasi? 64

**Ilova. Matn**

68

<b>EDITOR IN CHIEF</b>	
Shuhrat Sirojiddinov	
<b>DEPUTY EDITOR IN CHIEF</b>	
Karomat Mullakhojaeva (Uzbek)	
Kasimjon Mamurov (English)	
<b>EXECUTIVE SECRETARY</b>	
Ozoda Tojiboeva	
<b>EDITORIAL BOARD</b>	
Zaynabiddin Abdirashidov	
Karl Rechl (Germany)	
Isa Habibeyli (Azerbaijan)	
Benedek Peri (Hungary)	
Teymur Kerimli (Azerbaijan)	
Eunkyung Oh (Korea)	
Mark Toutant (USA)	
Bakijan Tukhliev	
Kasimjan Sadikov	
Nurboy Jabborov	
Gaybullah Babayarov	
Vali Savash (Turkey)	
Onal Kaya (Turkey)	
Kimura Satoru (Japan)	
Vahit Turk (Turkey)	
Seyhan Tanju (Turkey)	
Aftandil Erkinov	
Rashid Zahidov	
Atabek Juraboev	
Bakhtiyar Abdushukurov	
Almaz Ulvi (Azerbaijan)	
Yusupova Dilnavoz	
Kuldosh Pardaev	
Elchin Ibrahimov (Azerbaijan)	
Nodirbek Jurakuziev	

<b>CONTENTS</b>	
<b>LITERATURE</b>	
<b>Ilyos Ismoilov</b>	
Interpretations on the subject of Alexander in Tafsir	4
<b>Jahongir Turdiev</b>	
Motives in Turkic Mi'rajnama	20
<b>TEXTOLOGY</b>	
<b>Abdimurod Arslonov</b>	
Text features of "Temurnoma"	34
<b>Giyosiddin Shodmonov</b>	
The first stage of uzbek textology and the development of publications of Navoiy's Khamsa	50
<b>Aftondil Erkinov</b>	
<b>Oysara Madaliev</b>	
The latest edition of Terma Devon or Navoi's Navodir un-nihoya?	64
<b>Appendix. Text</b>	68

## Turkiy me'rojnomalardagi motivlar xususida

Jahongir Turdiyev<sup>1</sup>

### Abstrakt

Musulmon mintaqa madaniyati ma'naviy jihatdan yuksalishda bir qancha takomil bosqichlaridan o'tdi. Bu bosqichlar ichida insonni ehson maqomiga ko'tarilishida muhim hisoblangan tasavvuf tariqatlari bosqichi alohida o'ringa ega. Riyozat yo'li bo'lgan tasavvuf tariqati qalbni poklashdan boshlanadi. Mintaqa ma'naviy takomilidagi mazkur yuksalish bosqichi badiiy ijodda ham o'z aksini topa boshladi. Natijada tasavvuf adabiyoti maydonga keldi. XII asrdan boshlab badiiy adabiyotda tasavvufiy qarashlar yetakchi o'ringa ko'tarila boshladi. Mazkur davr ijodkorlari tasavvuf ilmini puxta egallagan va bu ularning hayot yo'llarida, yashash tarzida o'z aksini topgan edi. Ular tomonidan bitilgan, bugungi kunimizga qadar yetib kelgan asarlar ham ushbu fikrimizni tasdiqlaydi. Tasavvuf adabiyotida Isro va Me'roj mavzusi alohida ahamiyat kasb etadi. Ko'pgina ijodkorlar o'z asarlarida mazkur voqealarni bayon etuvchi maxsus boblar ajratganlar. Umuman, Isro va Me'roj voqeasiga bag'ishlangan nasriy va nazmiy asarlar tasavvuf adabiyotining ajralmas qismidir. Ushbu maqola turkiy me'rojnomalarning asosini tashkil etuvchi motivlar tahliliga bag'ishlangan. Unda turkiy adabiyotda me'rojnomalarning yozilish sabablari, tuzilishi, manbalar asosida kiritilgan motivlar masalalari o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** *tasavvuf adabiyoti, Me'rojnoma, Isro, janr, motiv, Islom tarixi, kitobatchilik.*

### Kirish

Mavzu doirasida turkiy "Me'rojnoma"ning Parij va Istanbul kutubxonalarida saqlanayotgan qo'lyozma nusxalari hamda Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonidagi me'roj qismini ko'rib o'tamiz. Payg'ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi vasallam necha marta me'rojga chiqqanliklari haqida turli qarashlar mavjud.

---

<sup>1</sup> Turdiyev Jahongir Zafariddin o'g'li – tayanch doktorant, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

**E-pochta:** jahongirshoh15@mail.ru

**ORCID ID:** 0000-0001-5244-8542

**Iqtibos uchun:** Turdiyev, J.Z. 2021. "Turkiy me'rojnomalardagi motivlar". *Oltin bitiglar* 2: 20-33.

Shuningdek, bu masalada turli, jumladan, me'roj voqea uyg'oqlikda sodir bo'lganmi yoki uyqudami va yoxud ba'zisi uyg'oqlikda va ba'zisi uyquda bo'lganmi kabi turli fikr-mulohazalar mavjud. Bunday turli qarashlar "Isro va Me'roj" kechasi haqidagi rivoyatlarda bayon qilingan voqealar bois kelib chiqqan.

Jumhur ahli – sunna val jamoa ulamolari Isro va Me'roj hodisasining Rasululloh sallallohu alayhi vasallam payg'ambar bo'lganlaridan keyin, Makka davrida, hijratdan sal oldin, Islom da'vati quvg'in bilan muvaffaqiyat o'rtasida turgan bir paytda, uyg'oq hollarida, ruh va tanalari bilan, Jabroil farishta hamrohligida, Buroq nomli mo'jizaviy ulovda, kechaning bir bo'lagida, bir marta yuz berganiga ittifoq qilishgan. Besh vaqt namoz Isro kechasi Me'rojda farz qilinganiga barcha ulamolar yakdildirlar.

Me'roj hodisasi turkiy adabiyotda eng ko'p yoritilgan mumtoz mavzulardan deyish mumkin. XII asrdan boshlab nazmiy va nasriy me'rojnoma yozila boshlangan [Akar 1987, 319].

Ijod ahli tomonidan devonlarga me'roj mavzusiga oid she'r-larni kiritish an'anaga aylangan. Dastlab adabiyotda na'tning bir qismi bo'lgan me'roj mavzusi keyinchalik mustaqil janr sifatida shakllandi. Vaqt o'tishi bilan qasidalarining *me'rojiya*, masnaviylarining esa *me'rojnoma* deb nomlangan turlari vujudga keldi. Odatda, ushbu mavzu diniy manbalarga asoslangan holda didaktik uslubda yozilgan.

Turkiy adabiyotda me'roj hodisasi dastlab Sotuq Bug'ro-xon dostonida motiv sifatida namoyon bo'ladi. XII asrda chig'atoy turkiysida bitilgan, muallifi Hakim ota deb qabul etilgan 122 baytli "Me'rojnomat ul-hazrat" asari me'roj mavzusi yoritilgan mustaqil janrning ilk namunasi hisoblanadi [Hasan Shener 2016, 79].

Fuzuliyning "Layli va Majnun"i va Alisher Navoiyning "Xamsa"si tarkibidagi masnaviylar, shuningdek, "Lison ut-tayr" dostonidagi me'roj boblari turkiy tildagi mazkur mavzu yoritilgan muhim manbalardir. Keyingi asrlarda turkiy adabiyotda mustaqil ravishda hamda devonlarda bir bo'lim sifatida me'roj mavzusida ijod etish an'anaga aylandi va asrlar davomida rivojlanib bordi.

Me'roj kechasida bo'lib o'tgan har bir voqea butun tafsilotlari bilan nasriy va nazmiy me'rojnomalarda motiv o'laroq kiritilgan. Nazmiy me'rojnoma ustida tadqiqot olib borgan turk olimi Metin Akar me'rojnomalardagi motivlarni oyat va hadislariga asoslangan hamda xalq orasidagi rivoyatlar va ijodkorlarning tasavvuriga asoslangan motivlarga ajratgan [Akar 1987, 206].

Nasrda hamda nazmda yozilgan me'rojnomalarda qo'llangan

motivlarni shartli ravishda quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

- *Isro hodisasi yuz berguniga qadar bo'lgan motivlar.*
- *Tungi sayr (Isro) davomidagi motivlar.*
- *Me'roj hodisasi davomidagi kechinmalarga oid motivlar.*
- *Isro va me'rojdin qaytgandan keyingi voqealarga doir motivlar.*

### **Me'roj voqeasining sababi**

Barcha me'rojnimalarda me'roj hodisasiga doir ishlangan motivlar boshida me'rojning sababi keladi. Eng ishonchli rivoyatga ko'ra Muhammad sallallohu alayhi vasallam boshchiliklaridagi oz sonli musulmonlarga nisbatan mushriklarning ozorlari, qiynoqlari kuchaygan qiyin bir holat paydo bo'lgan edi. Payg'ambar sallallohu alayhi vasallamni mushriklarning hujumlaridan himoya qiladigan shaxslar Abu Tolib va Xadicha onamiz ham vafot etgan va qiyinchilik haddan oshgan davrda Isro va Me'roj voqeasi sodir bo'ldi. Bu esa, ana shunday og'ir bir paytda u zot sallallohu alayhi vasallam va musulmonlar uchun katta tasalli edi. Noumidlik kayfiyatini so'ndirib, umid uchqunlarini alanga oldirish edi. Ayni chog'da, bu hodisa kishilar iymonini sinash omili ham edi.

Shuningdek, mufasssirlar "Isro" va "Najm" suralarining ba'zi oyatlarini o'rganib, Alloh taolo ulkan oyat-mo'jizalaridan bir qismini Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallamga ko'rsatish uchun me'roj voqeasi bo'lib o'tganligini ta'kidlashgan.

### **Me'rojning sanasi**

Bu motiv me'roj voqeasining qaysi sanada bo'lib o'tganligi haqidadir. Isro va Me'roj hodisasi yuz bergani haqida Islom ummatida mutlaqo ixtilof yo'q. Ammo qachon sodir bo'lgani haqida turlicha qarashlar bor. Bu borada tadqiqot olib borgan Siyrat fani mutaxassisi Abdul Azim Ziyovuddin ma'lumotlarni tahqiq etib Me'roj voqeasi sanasi haqida quyidagi xulosani keltiradi:

"Isro va Me'roj voqeasi hijratdan bir yil oldin, payg'ambarlikning 13-yili robi ul-avval oyida, dushanba kuni bo'lgani "rojih"-haqiqatga yaqindir. Bu vaqt milodiy 621-yilning sentyabr yoki oktyabr oyiga to'g'ri keladi. O'shanda Rasululloh sallallohu alayhi vasallam qamariy 52 yoshga to'lgan edilar. Alloh taolo o'zining buyuk hikmati ila bu hodisaning aniq vaqtini Qadr kechasi kabi unuttirdi!".

### **Me'roj da'vatining xabari**

Mazkur motiv Me'roj da'vatining xabari haqidagi rivoyatlar-

ga ko'ra Muhammad sallallohu alayhi vasallam Hatimda, Hijrda yoki Ummu Honiyning uyida ekanliklarida Jabroil alayhissalom u kishini da'vat qilish uchun kelganliklari to'g'risidadir. Hadislarga tayana-digan bo'lsak, voqea Ummu Honiyning uylarida ekanliklarida da'vat boshlangan. Ummu Honiy roziyallohu anhon-ing nasabi Rasululloh-nikiga borib taqaladi, bu sahobiya u zotning amakilari Abu Tolibning Fahita ismli qizi bo'lib, hazrati Aliyning opalaridir.

### **Ko'krak yorilishi motivi**

Bu motivda me'roj voqeasidan avval Muhammad sallallohu alayhi vasallamning ko'ksilarini yorilib, bashariy ayb va nuqsonlar-dan poklanganligi, qalblarining imon va hikmat bilan to'ldirilgan-ligi haqida so'z boradi. Ayrim mufasssirlarga "Sharh" surasining ilk oyati bu voqeaga aloqador bo'lib, oyatning ma'no tarjimas-i quyidagi-cha: *Sening ko'ksingni keng qilib qo'ymadikmi?* (Sharh surasi, 1-oyat ma'no tarjimas-i).

Ya'ni, Alloh taolo O'zining inoyati bilan Muhammad sallallo-hu alayhi vasallamning ko'ksilarini keng qildiki, u zot ko'ksilariga payg'ambarlik, hidoyat, imon, hikmatlar mas'uliyatini sig'dira oldi-lar [Shayx Muhammad Sodiq 2012, 498–499].

Payg'ambar alayhissalomning ko'ksilari yorilishi necha bor sodir bo'lgani haqida ulamolar turlicha fikr bildirishgan. Ba'zi ula-molar to'rt marta sodir bo'lgan desa, boshqa ulamolar ushbu hodi-saning uch marta sodir bo'lganini ta'kidlaydilar. Bu borada yanada chuqurroq izlangan ulamolarimiz "Payg'ambar alayhissalomning ko'kraklari ikki marta yorilgan", degan fikrni ilgari suriadilar. Biz-ningcha ham keyingi fikr to'g'riroqdir.

U zot sallallohu alayhi vasallam tavalludlarining to'rtinchi yoki beshinchi yilida "Shaqqus sodr" (ko'ksining yorilishi va undan shayton ulushining chiqarib tashlanishi) voqeasi bo'lib o'tdi. Imom Muslim Anas roziyallohu anhudan rivoyat qilinishicha, Rasululloh sallallohu alayhi vasallam bolalar bilan o'ynab yurganlarida, Jabroil alayhissalom kelib, u kishini yerga yotqizdi va ko'kraklarini yorib, yuragini chiqarib oldi. Yurakdan bir quyuq qonni olib tashlab: "Bu shaytonning sizdagi ulushi edi", – dedi. So'ng oltin tog'oradagi Zam-zam suvi bilan yurakni yuvib, o'nglab-yaxshilab, keyin joyiga solib qo'ydi. Bolalar onaning, ya'ni Halimaning oldiga yugurib kelib: "Mu-hammadni o'ldirishdi", – deyishdi. Ular nabiyy sallallohu alayhi vasal-lamni qarshilaganlarida, u zotning ranglari o'zgarib ketgan edi. Anas raziyallohu anhu aytadi: "Men u zotning ko'ksilaridagi o'sha tikilgan ip izlarini payqagan edim" [Muborakfuriy 2019, 52].



Ikkinchi “Shaqqus sodr” voqeasi Isro kechasida sodir bo’lgan. Bu haqda ikki “Sahih”da ham aytib o’tilgan. Sahihul Buxoriyda keltirilishicha, Molik ibn Sa’sa’ raziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Allohning Nabiyasi sallallohu alayhi vasallam o’zlari sayr qildirilgan kechalari haqida so’zlab berdilar: “Men Hatimda yonboshlab yotgan edim, birov kelib mana bu yerdan manavi yergacha kesdi. So’ng qalbimni chiqardi. Keyin menga iymon to’la tilla jom keltirildi. So’ng esa qalbim yuvilib, joyiga solib qo’yildi. So’ngra menga xachirdan kichikroq, eshakdan kattaroq bir oq ulov keltirildi. Men unga mindirildim. Keyin Jabroil meni olib yo’lga tushdi...” [Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy 2014, 158].

Mo’tabar olimlarning ta’kidlashlaricha, muborak ko’kslari-ning bu safargi yorilishining sababi ul zotni yuksak darajada hurmat qilish, e’zozlash, qo’llab-quvvatlash va eng muhimi, Alloh taoloning huzurida turishga, U Zot bilan suhbatlashishga tayyorlashdir [Sayyid Muhammad 2019, 42]. Me’rojnomalarda ikkinchi “Shaqqus sodr” voqeasi motiv o’laroq tasvirlaganligi ma’lum bo’ladi.

### **Me’roj voqeasi boshlangan joy motivi**

Ushbu motiv barcha me’rojnomalarda uchraydi. Sanab o’tilayotgan boshqa barcha motivlar ushbu motiv asosiga qurilgan. Imom Jaloliddin Suyutiy “Isro va Me’roj” haqida quyidagilarni yozgan: “Mufasssirlar, muhaddislar, fuqaholar va mutakallimlar barchalari “Isro va Me’roj”ning uyg’oqlikda bir kechada bo’lganiga ittifoq qilganlar. Bu haqida ochiq-oydin sahih xabarlar kelgan. Alloh taolo xabar berganki:

سُبْحَانَ الَّذِي أَسْرَى بِعَبْدِهِ لَيْلًا مِّنَ الْمَسْجِدِ الْحَرَامِ إِلَى الْمَسْجِدِ الْأَقْصَى الَّذِي بَارَكْنَا  
حَوْلَهُ لِنُرِيَهُ مِنْ آيَاتِنَا إِنَّهُ هُوَ السَّمِيعُ الْبَصِيرُ

**(O’z) bandasi (Muhammad)ni, unga mo’jizalarimizdan ko’rsatish uchun (Makkadagi) Masjidi Haromdan (Quddusdagi) Biz atrofini barakatli qilgan Masjidi Aqsoga tunda sayr qildirgan Zot barcha nuqsonlardan pokdir. Darhaqiqat, U Same’ (eshituvchi) va Basir (ko’ruvchi)dir** (Isro surasi, 1-oyat ma’no tarjimasini) [Shayx Abdulaziz Mansur 2019, 282].

Tasbeh ulug’ ishlar qarshisida aytiladi (oyatda “Subhana” deya tasbeh aytilmoqda). Agar mazkur voqea Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning uxlayotgan paytlarida sodir bo’lganida, bu ishda alohida bir ulug’lik bo’lmasdi. Quraysh ham buni birdan inkor qilishga oshiqmas, islomga endi kirgan ba’zi kimsalar ham murtad

bo'lib ketmas edi. Zero, banda ruh va jasaddan iborat. Agar mazkur voqea u zotning uxlagan paytlarida faqat ruhlariga bog'liq holda sodir bo'lganida edi, oyatda "Bandasini" deb emas, balki "Bandasining ruhini" deb aytilgan bo'lardi. Qolaversa, bu aqlan ham to'g'ri emas, chunki u zot Buroqqa mindirilganlar. Buroqqa esa ruh mindirilmaydi, balki badan mindiriladi" [Abdulqodir Abdurahim 2012, 172].

Oyatdagi "O'z bandasi"dan murod, Muhammad sollallohu alayhi vasallamdir. Muhammad sallallohu alayhi vasallam doimo Allohning bandasi ekanliklari bilan faxrlanib yurar edilar. Ushbu oyatda u zotning nomlari aytilmay, "O'z bandasi" iborasi ishlatilishi ham Payg'ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi vasallam faxr hamda eng og'ir paytda u kishi uchun tasallidir [Shayx Muhammad Sodiq 2006, 179].

Qur'oni karimda "Masjid ul-Harom" iborasi uch narsaga ishlatiladi.

Birinchisi – Ka'bai Muazzama atrofidagi masjid.

Ikkinchisi – Makkai Mukarrama shahri.

Uchinchisi – Makkai Mukarrama atrofida haram uchun belgilangan chegara: kofirlar kirib bo'lmaydigan, ov ovlani, o'simliklari kesilib yoki yulini bo'lmaydigan, ko'pgina ma'lum ishlar harom etilgan mintaqaga nisbatan ham ishlatiladi.

Ushbu oyati karimadagi "Masjid ul-Harom" iborasi Makkai Mukarrama shahri ma'nosida kelgan.

Isro kechasi Payg'ambarimiz Ka'bai Muazzama atrofidagi masjidda emas, shaharning bir tarafida joylashgan ammalari Ummu Honiyning uyida uxlab yotgan edilar.

"Masjid ul-Aqso"dan murod Shomdagi Bayt ul-Maqdisdir. "Aqso" so'zi uzoq, chet ma'nolarini bildiradi. Masjid esa ibodatxona, sajdagoh ma'nosini bildirishi hammaga ma'lum [Shayx Muhammad Sodiq 2006, 180].

O'sha paytda Bayt ul-Maqdis Makkai Mukarramaga nisbatan uzoq va eng chetdagi ibodatxona hisoblanar edi. Shuning uchun ham uni "Masjid ul-Aqso" deb nomlanadi.

"Isro" surasining ilk oyatida keltirilganidek, Muhammad sallallohu alayhi vasallam Makkadagi Masjid ul-Haromdan Qudusdagi Masjid ul-Aqsoga sayr ettirilgandir. Me'roj voqe'asi boshlangan joyi hadislarda Hijr, Hatim yoki Ummu Honiyning uylari ekanligi keltiriladi.

### **Namoz motivi**

Bu motivda, besh mahal namozning farz bo'lganligi, Masjid ul-

Aqsoda payg'ambarlar bilan o'qilgan namoz, Madina va Madyanda o'qilgan namozlar, Tur tog'ida o'qilgan namoz, Bayt ul-ma'murda o'qilgan namozlar keltirilgan.

### **Ichimliklar motivi**

Me'roj kechasida Payg'ambar alayhissallomga suv, asal, sut va sharob kabi ichimliklar tortiq qilinadi, ammo payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam sutni tanlaydilar.

### **Osmonlar motivi**

Qur'oni Karimda keltirilishicha, osmonlar yetti qavatdir. *Alloh yetti osmonni qandoq qilib tabaqama-tabaqa yaratib qo'ygani-ni ko'rmadingizmi?* (Nuh surasi, 15-oyat ma'no tarjimasi). Me'rojga oid hadislarda ham osmon qavatlari, har bir qavatdagi voqealar birma-bir bayon qilinadi. Bu o'ziga xoslik me'rojnomalarda ham aks etgan.

### **Payg'ambarlar motivi**

Me'rojga oid hadislarda Muhammad (s.a.v.)ni har bir osmon qavatida payg'ambarlar tomonidan qarshi olinishi, ular bilan ko'rishganlari bildirilgan. Hadislarga asoslangan me'rojnoma-  
ning ko'pida payg'ambarlar haqida so'z yuritiladi. Bu payg'ambarlar Odam alayhissallom, Idris alayhissallom, Ibrohim alayhissallom, Yusuf alayhissallom, Muso alayhissallom, Horun alayhissallom, Yahyo alayhissallom va Iso alayhissallomdir.

### **Farishtalar motivi**

Me'rojnomalarda nomlari zikr etilgan farishtalar Jabroil, Mikoil, Isrofil va Azroil alayhissallomlardir. Jabroil alayhissallom me'roj kechasi Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni uyg'otgan, me'roj mujdasini keltirgan, ko'ksilarini keng qilgan, shundan so'ng Buroqqa mindirib, yo'lda birgalikda yo'ldosh bo'lgan farishta sifatida zikr etiladi va tasvirlanadi. Jabroil alayhissallomning Sidrat ul-muntahodan nariga o'ta olmasliklari me'rojnomalarda o'ziga xos tarzda ishlangan motivdir. Mikoil alayhissallom me'roj da'vati xabari uchun Jabroil alayhissallom bilan birgalikda kelgan, shaqqus **s**odr hodisasida unga yordamchi bo'lgan, Buroq bilan sayr chog'ida yuganini tutgan farishta o'laroq zikr etiladi va tasvirlanadi. Isrofil va Azroil alayhissallomlar ham me'rojnomalarda zikri keltirilgan farishtalardir. Shuningdek, me'rojnomalarda yetmish ming boshli farishta, Otashkor farishta, Molik, Ismoil, suvoriylar, yettinchi qavat

osmondagi dengiz ichidagi farishtalarning nomlari zikr etilganini ko'rish mumkin. Me'roj bilan bog'liq oyatlarning tafsirlarida va me'rojga oid hadislarda bu farishtalardan faqatgina Jabroil alayhis-salomning nomi keltirilgan.

### **Jannat motivi**

Me'rojnomalarda jannati Ma'voning tasviri, hurlar va Tubo daraxti jannat bilan bog'liq motivlar ichida alohida o'ringa ega.

### **Suv motivi**

Me'rojnomalarda suv bilan bog'liq motivlar quyidagilar:

a) yer bilan birinchi qavat osmon orasidagi suv;

b) Sidrat ul Muntaho joylashgan osmondan chiqqan to'rt daryo: Kavsar, Rahmat, Nil, Furot;

Sidrat ul muntaho daraxti ostida Nil va Furot daryolari namoyish qilingan. Bu ular aynan o'sha joydan oqib tushadi, degan ma'noda emas, albatta. Ammo ularning mazkur maqomda Nabiylar sal-lallohu alayhi vasallamga ko'rsatilishi ularning barakali, jannat an-horlari kabi fazilatli, sermanfaat ekanini anglatadi;

c) Salsabil chashmasi;

d) dur ichidagi dengizlar;

e) Arsh oldidagi dengizlar;

f) jannatdagi to'rt irmoq: rangi, hidi, hech bir xususiyati buzilmagan irmoqlar, mazasi o'zgarmagan sutli irmoqlar, ichuvchilarga lazzat baxsh etuvchi sharobdan bo'lgan irmoqlar, asal oquvchi irmoqlar.

### **Jahannam motivi**

Me'rojnomalarda jahannam bilan bog'liq motivlarda harom, foiz va yetim molini yeganlar, zino qilganlar kabi ba'zi insonlarning jazolanishiga doir tasvirlar o'rin olgan.

### **Obod uy motivi**

Hadislarda keltirilishicha, Obod uy yettinchi qavat osmonda, Ka'bai Muazzamaning tepasida joylashgan bir uydir (masjiddir). Uni har kuni yetmish ming farishta tavof qiladi va ularning ko'pligidan bir tavof qilgani yana qaytib kira olmaydi. Yerdan Ka'batulloh qanday ulug'lansa, osmonda "Bayt ul-ma'mur", ya'ni Obod uy ham shunday ulug'lanadi [Shayx Muhammad Sodiq 2006, 193]. Me'roj kechasi Rasululloh sallallohi alayhi vasallam uni ko'rganlar va tavsif etganlar.

### **Sidrat ul-muntaho**

Lugʻatda “intiho daraxti”, “chegara daraxti” degan maʼnoni anglatadi. Hadisda taʼriflanishicha, u butasimon daraxt boʻlib, chavandoz bir necha oʻn yil ot choptirsa ham uning soyasidan chiqa olmaydi. Uning “intiho” deb nomlanishiga sabab shuki, barcha mahluqotning ilmi oʻsha joygacha yetadi, undan uyogʻida nima borligini Allohdan oʻzga hech kim bilmaydi. Farishtalar ham undan uyogʻiga oʻta olmaydilar. Bu ham gʻaybga taalluqli narsalardan boʻlib, bu haqda oyat va hadislarda kelgan maʼlumotlar bilan kifoyalanish lozim. Uning kayfiyati va boshqa jihatlari Allohning oʻzigagina maʼlum boʻlib, inson aql-u idrokidan ustundir [Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy 2014, 162]. Meʼrojnomalarda ham ushbu daraxt alohida tilga olingan. Qurʼoni Karimda ikki oʻrinda, yaʼni “Najm” surasining 14- va 16-oyatlarida Sidrat ul-muntaho nomi zikr etilgan, meʼroj haqida kelgan hadis va rivoyatlarda ham ushbu daraxt nomini uchratish mumkin.

### **Lavh ul-mahfuz**

Meʼrojnomalarda uchraydigan ushbu motiv islomiy asosga tayangandir. Lavh ul-mahfuz – sodir boʻladigan har bir hodisa unda yozilgan kitobdir.

### **Qalam motivi**

Meʼrojnomalardagi tasvirlarga koʻra, inju yoki yoqutdan yaratilgan, siyohi nurdan boʻlgan bir qalam. Muhammad sallallohu alayhi vasallam meʼroj kechasi mazkur qalamning ovozini eshitganlar.

### **Qaytish motivi**

Muhammad sallallohu alayhi vasallam osmonlarga chiqib aylanib, meʼrojini nihoyasiga yetkazganlaridan soʻng Jabroil alayhissalom bilan birgalikda yana Ummu Honiyning uylariga tushadilar. Oʻshanda obdastalari toʻla, koʻrpalarini qanday qoldirgan boʻlsalar xuddi oʻshandoqligicha, yotgan oʻrinlari ham sovimaganda holda boʻladi.

### **Abu Jahlning munosabati motivi**

Meʼroj hodisasidan soʻng Abu Jahl bilan koʻrishgan paygʻambarimiz Muhammad sallallohu alayhi vasallam unga bir kechada Quddusga olib borilib, yana qaytib keltirilganliklarini aytadilar. Bunga ishonmagan Abu Jahl xalqni toʻplab, Rasululloh alayhissalomdan

bo'lgan hodisani yana bir bor aytib berishlarini so'raydi. Muhammad sallallohu alayhi vasallam ularga ham bu voqeani so'zlab beradilar. To'planganlarning bir qismi "Bu ochiq yolg'on-ku, bizning karvonlarimiz bu masofaga ikki oyda borib kelishadi", – deya inkor etadilar. Bir qismi esa Al-Amin bo'lgan Muhammad sallallohu alayhi vasallamning aytganlarini tasdiqlaymiz, deya xursand bo'ladilar. Abu Jahl va uning tarafdorlarining bu xatti-harakatlari me'rojomalarda motiv sifatida olingan.

### **Hazrat Abu Bakr raziyallohu anhuning tasdig'i motivi**

Abu Jahl va uning tarafdorlari Abu Bakr raziyallohu anhuning uylariga borib, "Muhammad bir kecha ichida Masjid ul Aqsoga borib kelganligini aytyapti. Sen bunga nima deysan?", – deb so'rashadi. Hazrat Abu Bakr raziyallohu anhu esa: "Agar Muhammad sallallohi alayhi vasallam shunday degan bo'lsalar, to'g'ri aytibdilar, men bunga shohidlik beraman. Men u kishining bundan g'aribroq narsasini ham tasdiqlayman. Osmondan xabar aytishini ham tasdiqlayman", dedi. Shundan Abu Bakr "Siddiq" – o'ta tasdiqlovchi, deb atala boshladilar<sup>1</sup>. Bundan ulug' sahobaga martabalarini ulug'lovchi laqabning berilishi bevosita Rasululloh sallallohi alayhi vasallamga mustahkam ishonchlari va me'roj voqeasi bilan bog'liq ekanligi ma'lum bo'ladi.

### **Masjid ul-Aqso motivi**

Muhammad sallallohi alayhi vasallam bir kechada Masjid ul-Aqsoga borib kelganligiga ishonmaganlar, bu safar Rasululloh alay-hissalomdan Masjid ul-Aqsoni sifatlab berishlarini talab qiladilar. Masjid payg'ambar sollallohu alayhi vasallamga ko'rsatiladi. U zot sollallohu alayhi vasallam ularga masjidni vasf qila boshlaydilar. Ular nima so'rasalar, barcha savollariga payg'ambar sallallohu alayhi vasallam to'g'ri javob berdilar. Shunda ular "Ammo vasfini to'g'ri qildi", deydilar [Shayx Muhammad Sodiq 2006, 183].

### **Karvonlar motivi**

Muhammad sallallohu alayhi vasallamning Masjid ul-Aqsoni to'g'ri sifatlab berishlariga qaramasdan, u kishiga ishonmaganlar bu safar endi yo'ldagi karvonlari haqida xabar berishlarini so'rashadi. Payg'ambar sallallohu alayhi vasallam ularning karvonidagi tuyalar soni, ahvoli haqida to'liq xabar berib, "Karvon falon kuni, quyosh

---

<sup>1</sup> Arablarda kishilarni nomlash uch qismga bo'linadi. Agar nom madh yoki mazammat ma'nosini anglatga laqab bo'ladi. Agar nom Abu, Ummu, Ibn va Bint so'zlari bilan boshlansa kunya bo'ladi. Agar bu ikki narsaga oid bo'lmasa ism bo'ladi.

chiqish paytida yetib keladi. Oldinda kulrang tuya bo'ladi", deyдилar. Karvon shaharga kirib kelganda aytilgan xabarlarining barchasi to'g'ri chiqadi. Ammo shundoq bo'lsa ham ular iymon keltirmaydilar. Isro hodisasi buyuk mo'jiza edi. Buni bilgandan keyin iymon keltirmoqlari lozim edi. Biroq iymon keltirmaydilar [Shayx Muhammad Sodiq 2006, 184].

Turkiy me'rojnomaalarda boshqa motivlarni ham uchratish mumkin. Yuqorida keltirilgan motivlarning barchasi ayni bir asarda to'liq uchramasa-da, me'roj mavzusiga bag'ishlangan asarlarga xos umumlashgan motivlar deyish mumkin.

### **Xulosa**

Islom madaniyatining yorqin namunalaridan hisoblangan me'rojnomaalarni yozishda irod ahli oyat va hadislarga tayanganlar. Bu esa ularning aqoid, Qur'on ilmi, hadis, Islom tarixi, tafsir kabi diniy ilmlarni puxta o'zlashtirganlikaridan dalolat beradi. Xulosa qilib aytganda:

Me'rojnomaalarda dastlab Isro voqeasiga doir motivlar, shundan so'ng Me'roj voqeasiga bog'liq motivlar o'rin olgan bo'lib, unda voqealar rivoji davriy tartibda kechgan.

Islom tarixida muhim voqealardan bo'lgan Me'roj mo'jizasi deyarli barcha musulmon xalqlari tamaddunida alohida o'rin egalagan, mumtoz adabiyotda, xalq og'zaki ijodida, xattotlik va kitobat san'atida o'ziga xos tarzda aks etgan.

Isro qissasi islomiy da'vatning bir davri tugab, yangi bir davri boshlanish arafasida ekanini ko'rsatadi. Besh vaqt namoz ham Isro kechasi Me'rojda farz qilingani insoniyat tarixidagi ulkan hodisa bo'lib, bu uning boshqa islomiy ruknlardan farqli jihatidir.

Tasavvuf adabiyoti namoyandalari o'z asarlarida Isro va Me'roj voqealarini bayon etuvchi maxsus boblar ajratishini ularning mazkur hodisaga nisbatan mustahkam ishonchlari bilan izohlash mumkin. Shuningdek, Me'rojnomaalar uslubi yuksak balog'at darajasida bitilgani mualliflarning bu ilmni yaxshi o'zlashtirganligi va amalda qo'llay olganligini ko'rsatadi.

Turkiy adabiyotda Me'roj mavzusiga alohida ahamiyat berilishi va irod ahlining bu borada ko'p asarlar bitishidan ko'zlangan maqsad o'quvchida go'zal xulqni shakllantirish edi. Badiiy-estetik ta'sirini oshirish uchun mualliflar o'z asarlarida badiiy san'at va tasvir vositalaridan unumli foydalanganlar. Me'roj mavzusiga bag'islangan asarlar turkiy adabiyot va adabiy tilning, shu bilan birga matnshunosligimizning eng sara namunalaridandir.



### **Adabiyotlar**

- Абдулқодир Абдурахим. 2012. *Эътиқод дурдоналари*. Тошкент.
- Абу Малик бахши. *Меърожнома*. Қўлёзма. Париж миллий кутубхонаси Suppl. Turc. бўлими №190.
- Алишер Навоий. 2019. *Лисонут-тайр*. Тошкент: Янги аср авлоди.
- Akar Metin. 1987. *Türk Edebiyatında Manzum Mi'râc-nâmeler, Kültür ve Turizm Bakanlığı Yayınları*. Ankara.
- АН-НАИМ. 2003. Арабча-ўзбекча луғат. Тошкент.
- Древнетюркский словарь*. 1969. Ленинград.
- Hasan Şener. 2016. "Türk edebiyatında mi'râciyye geleneği ve harputlu Rahmî'nin Beyân-i mi'râc başlıklı manzumesi". *The Journal of International Social Sciences*. Elazığ.
- Courteille, Pavet de. 1882. *Mirâdj-nâme, Récit de l'Ascension de Mahomet au Ciel* Composé A.H. 840/1436-1437. Amsterdam.
- Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. 2014. *Саҳиҳул Бухорий*. Олтин силсила 5-жуз. Тошкент.
- Муборакфурий Саффиюррахмон. 2019. *Ар-Раҳиқул махтум*. Самарқанд: Имом Бухорий халқаро маркази нашриёти.
- Саййид Муҳаммад Ҳасаний. 2019. *Икки олам сарвари*. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 352б.
- Нуриддин Али ат-Талиқоний. *Меърожнома*. Қўлёзма. Истанбул Сулаймония кутубхонаси, Фотиҳ фонди №2848.
- Шайх Абдулазиз Мансур. 2019. *Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири*. Тошкент: Sano-standart.
- Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. 2006. *Ҳадис ва ҳаёт*. Нубувват ва рисолат 19-жуз. Тошкент: Sharq.
- Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. 2012. *Тафсири Ҳилол*. 6 жуз. Тошкент: Sharq.
- <https://islom.uz/view/lakab-va-kunya>
- [https:// siyrat.uz](https://siyrat.uz).



## Motives in Turkic Mi'rajnama

Jahongir Turdiev<sup>1</sup>

### Abstract

The culture of the Muslim country has passed through a number of stages of perfection in its spiritual ascent. Among these stages, the tariqat (doctrine) of tasawwuf (Sufism) holds a special place, which is considered important in a person's improvement to the status of ikhsan. It is well known that the tariqat of tasawwuf is the path of piety, and the path begins with purification of the soul. This stage in the spiritual development of the region began to be reflected in the arts. As a result, Sufi literature emerged. Sufi views began to take the center stage in literature from the 12th century onwards. The writers of that period mastered the science of tasawwuf thoroughly, and this reflected in their lifestyle and way of life. The works written by them and which have survived the present day also verify this idea. The subject of Isra and Mi'raj has a special significance in Sufi literature. Many writers have devoted special chapters in their works. In general, the prose and poetry devoted to the events of Isra and Mi'raj are an integral part of Sufi literature. This article is devoted to the analysis of the motives that underlie the Turkic traditions. It examines the reasons for writing mi'rajnames in Turkic literature, their structure, and the motifs introduced on the basis of reliable sources.

**Key words:** *Sufi literature, Mi'rajnama, Isra, genre, motive, Islamic history, bibliography.*

### References

- Abdulqodir Abdurahim. 2012. *E'tiqod durdonalari*. Toshkent.
- Abu Malik baxshi. Me'rojnoma. Qo'lyozma. Parij milliy kutubxonasi Suppl. Turc. bo'limi №190.
- Alisher Navoiy. 2019. *Lison ut-tayr*. Toshkent. Yangi asr avlodi.
- Akar Metin. 1987. *Türk Edebiyatında Manzum Mi'râc-nâmeler, Kültür ve Turizm Bakanlığı Yayınları*. Ankara.
- AN-NAIM. Arabcha-o'zbekcha lug'at. 2003. Toshkent.
- Drevnetyurkskiy slovar*. 1969. Leningrad.

---

<sup>1</sup> *Jahongir Z. Turdiev* - PhD student, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.

**E-mail:** jahongirshoh15@mail.ru

**ORCID ID:** 0000-0001-5244-8542

**For citation:** Turdiev, J. Z. 2021. "Motives in Turkic Mi'rajnama". *Golden scripts* 2: 20–33.

- Courteille, Pavet de. 1882. *Mirâdj-nâme, Récit de l'Ascension de Mahomet au Ciel Composé A.H. 840/1436-1437*. Amsterdam.
- Hasan Şener. 2016. *Türk edebiyatında mi'râciyye geleneği ve harputlu Rahmî'nin Beyân-i mi'râc başlıklı manzumesi*, The Journal of International Social Sciences. Elazığ.
- Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. 2014. *Sahihul Buxoriy*. Oltin silsila 5-juz. Toshkent.
- Muborakfuriy Saffiyurrahmon. 2019. *Ar-Rahiqul maxtum*. Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro markazi nashriyoti.
- Nuriddin Ali at-Taliqoniy. *Me'rojnama*. Qo'lyozma. Istanbul Sulaymoniya kutubxonasi, Fotih fondi №2848.
- Shayx Abdulaziz Mansur. 2019. *Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri*. Toshkent: Sano-standart.
- Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. 2006. *Hadis va hayot*. Nubuvvat va risolat 19-juz. Toshkent: Sharq.
- Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. 2012. *Tafsiri Hilol*. 6-juz. Toshkent. Sharq.
- Sayyid Muhammad Hasaniy. 2019. *Ikki olam sarvari..* Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
- <https://islom.uz/view/lakab-va-kunya>
- <https://siyrat.uz>.

## MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

“Oltin bitiglar – Golden Scripts” jurnali – Sharq adabiyoti va madaniyati, ijtimoiy-ma’naviy hayoti, tilshunoslik va aniq fanlar, dinshunoslik va ilohiyotshunoslikka oid ahamiyatli qo’lyozma manbalar, xalq og’zaki ijodi namunalariga bag’ishlangan ilmiy tadqiqotlar xulosalarini chop etishga mo’ljallangan.

### I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo’lyozmalar yil davomida o’zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, turkiy tillarda topshirilishi mumkin. Agar muallif o’z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr etmoqchi bo’lsa, unda qo’lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etishi kerak.

Qo’lyozmalar MS Word (.doc) formatida (oltinbitiglar@gmail.com) elektron pochta yuborilishi kerak. Iqtiboslar va izohlar bo’yicha MS Word menejerini qo’llash lozim.

Barcha qo’lyozmalar muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma’lumot bilan yuboriladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig’i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o’ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo’lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16<sup>th</sup> Edition* formatida shakllantirilishi lozim.

Maqola matni 3 000–5 000 so’zdan iborat bo’lishi kerak.

100–150 so’zdan iborat o’zbek va ingliz tillaridagi abstrakt (annotatsiya) va 5–10 so’zdan kam bo’lmagan kalit so’zlar (o’zbek va ingliz tillarida). Abstrakt maqolaning maqsadi, metodologiyasi va natijalarini qisqacha ifodalashi kerak.

Adabiyotlar ro’yxati 5 sahifadan oshmasligi lozim.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo’lishi mumkin) 1500 so’zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so’ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

### II. Maqola bo’limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to’q bo’yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o’zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tillarda yozilgan bo’lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola sarlavhasidan keyin sahifaning o’ng chetida

muallifning ism-familiyasi yozilib, oxiriga yulduzcha (\*) ishorasi qo'yiladi va sahifa pastida muallif haqida quyidagi qisqa ma'lumotlar beriladi: F.I.O., ilmiy daraja va unvon; ish joyi; e-pochta va ORCID ID (raqami).

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.

Maqola bo'limlari sarlavhasi – *yotiq*, 14 hajm.

### **III. Maqolada tarjimalardan foydalanish**

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki" shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

### **IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi**

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasi qavs ichida ( ) satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

### **V. Havola va izohlar berish**

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [ ] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

### **VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi**

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satrboshidan, boshqa barcha qatorlari abzasdan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

## 6.1. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

### **Matnda qo'lyozma (toshbosma)ga havola berish:**

[Xondamir, Makorim, 17<sup>a</sup>]

## 7.2. Kitoblar uchun

### **Bibliografiyada:**

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011. *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

### **Matnda kitobga havola:**

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2011, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

### **Matnda kitobga havola:**

[Sirojiddinov 2011(a), 99]

### **Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Vohidov, Rahim va Husniddin Eshonqulov. 2006. *O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi*. Toshkent: Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.

### **Matnda kitobga havola:**

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va Eshonqulov 2006, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq muallifi bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismi to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda, birinchi muallifning ismi yozilib, davomida *va boshqalar* deb ko'rsatiladi:

[Familiya va boshqalar nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

### **Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Navoiy ijodida Ya'juj-Ma'juj obrazi." *Alisher Navoiy va XXI asr*, Shuhrat Sirojiddinov muharrirligida, 130 – 133. Toshkent: Mashhur-press.

### **Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 131]

### **Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:**

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili

(URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

### **Elektron kitobni bibliografiyada berish:**

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL.  
Foydalanilgan sana.

Adizova, Iqboloy. 2020. *Thinker poetess of the East*. Germany:  
Lambert Academic Publishing. <https://www.lap-publishing.com/>. 12.07.2019.

### **Matnda elektron kitobga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Adizova 2020, 11]

### **Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar:  
Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek  
matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti.  
<http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

### **Matnda elektron kitobga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 1987, 19-hujjat]

## **7.3. Jurnal maqolasi uchun**

### **Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni:  
maqola sahifalari.

Alimuhamedov, Rixsitilla. 2018. "Qadimgi turk-moniylar adabiyoti."  
*Oltin bitiglar* 1: 65 – 76.

### **Matnda jurnal maqolasiga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Alimuhamedov 2018, 70]

### **Elektron jurnal uchun:**

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

### **Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:**

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Saddi Iskandariy" dostonidagi adabiy ta'sir va o'ziga xoslik masalasi xususida." *O'zbekistonda xorijiy tillar* 3: 229 – 235. doi: 10.36078/1596780050.

### **Matnda maqolaga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 231]

## **7.4. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun**

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida chop etilgan maqolasida aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro'yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo'yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo'lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko'rsatilishi kerak.

### **Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:**



Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi.

Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. "Jomiy "Xamsa" yozganmi?." *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*, January 25.

**Matnda maqolaga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

**Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:**

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Sobirov, Ergash va Akmal Kenjayev. 2010. "Milliy qadriyat va globallashuv". *New York Times*, 27.02. <http://www.nytimes.com/28/us/28health.html>.

**Matnda maqolaga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sobirov va Kenjayev 2010, 17]

Maqola so'ngida foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro'yxati ikki qismdan iborat bo'lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko'rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

**Adabiyotlar**

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

**Adabiyotlar**

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini "*The Chicago Manual of Style, 16<sup>th</sup> Edition*" qo'llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle>. havolasidan ko'rib olishingiz mumkin.

## Qaydlar uchun

Ushbu son “Oltin bitiglar” tahririyatida sahifalandi.  
Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi 103-uy.  
e-mail: goldenscripts@gmail.com  
Tel.: +99891 166-31-38  
Bosishga 30. 06. 2021-yilda ruxsat etildi  
Qog‘oz bichimi 70x100 1/16/.  
nashriyot bosma tabog‘i: 8

Jurnal 2017-yil 26 oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0940 raqami bilan ro‘yxatdan o‘tgan.  
Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan.

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.

“Mashhur-Press” bosmaxonasida chop etildi.  
Buyurtma №0440 Adadi 300 dona.  
Bosmaxona manzili:100129 Toshkent, Markaz 15, 1-uy. Tel.: +99890 900 75 77,  
+99894 659 94 62